



UO'K: 631.4

TUPROQLARNING KIMYOVIY IFLOSLANISH NATIJASIDA BIOLOGIK XOSSALARINING O'ZGARISHI**CHANGES IN BIOLOGICAL PROPERTIES OF SOILS AS A RESULT OF CHEMICAL POLLUTION****ИЗМЕНЕНИЕ БИОЛОГИЧЕСКИХ СВОЙСТВ ПОЧВ В РЕЗУЛЬТАТЕ ХИМИЧЕСКОГО ЗАГРЯЗНЕНИЯ****Jabbarov Zafarjon Abdukarimovich¹**¹O'zbekiston Milliy Universiteti Tuproqshunoslik kafedrası professori**Atoeva Gulhayo Raxmonovna²**²O'zbekiston Milliy Universiteti Tuproqshunoslik kafedrası katta o'qituvchisi**Husniddinova Maftuna Husniddin qizi³**³Tuproqshunoslik kafedrası magistri**Annotatsiya**

Atrof-muhitning, shu jumladan tuproqning kimyoviy ifloslovchi moddalar bilan ifloslanishi yildan-yilga ortib bormoqda, bu esa tuproqning kimyoviy, fizik va biologik holatiga salbiy ta'sir ko'rsatishi natijasida tuproq unumdorligining pasayishiga olib keladi. Tuproqning kimyoviy ifloslanishi natijasida birinchi navbatda tuproqning mikrobiologik dunyosi o'zgaradi, fermentlar faolligi pasayib tuproqlarni o'zini o'zti tozalash qobiliyati yo'qoladi. Kimyoviy ifloslovchilar ta'sirida Ohangaron sement zavodi va Angren IES atrofi tuproqlarida mikroorganizmlar faolligi 1,5-2 martagacha kamayganligi kuzatildi.

Аннотация

Загрязнение окружающей среды, в том числе почвы, химическими загрязнителями с каждым годом увеличивается, что приводит к снижению плодородия почв в результате негативного воздействия на химическое, физическое и биологическое состояние почвы. В результате химического загрязнения почвы, прежде всего, изменяется микробиологический мир почвы, снижается активность ферментов, теряется способность почвы к самоочищению. Под воздействием химических загрязнителей отмечено снижение активности микроорганизмов в почвах вокруг Охангаронского цементного завода и Ангренской ТЭЦ в 1,5-2 раза.

Abstract

Pollution of the environment, including soil, with chemical pollutants is increasing year by year, which leads to a decrease in soil fertility as a result of negative effects on the chemical, physical and biological condition of the soil. As a result of chemical pollution of the soil, first of all, the microbiological world of the soil changes, the activity of enzymes decreases, and the ability to self-clean the soil is lost. Under the influence of chemical pollutants, it was observed that the activity of microorganisms decreased by 1.5-2 times in the soils around the Ohangaron cement plant and Angren thermal power plant.

Kalit so'zlar. Tuproq, kimyoviy ifloslanish, mikroorganizm, modda, biologik xossa.**Ключевые слова.** Почва, химическое загрязнение, микроорганизм, вещество, биологическое свойство.**Key words.** Soil, chemical pollution, microorganism, substance, biological property.**KIRISH**

Tuproq - bu tog jinslarining million yillar davomida parchalanishi natijasida hosil bo'lgan yer yuzasini qoplaydigan nozik bir materiya qoplami bo'lib, yer osti va usti suvlaridagi aralashmalar uchun tabiiy filtr, inson salomatligi uchun juda muhimdir vosita hisoblanadi. So'nggi paytlarda butun dunyo bo'ylab olib borilgan ba'zi tadqiqotlar tuproqda ifloslovchi moddalar miqdorining ortib ketganini tasdiqladi. Biroq, ushbu tadqiqotlarning aksariyati bir vaqtning o'zida kimyoviy ifloslovchi moddalarning ta'sirini o'rganish yildan yilga murakkablashib bormoqda. Bugungi kunda dunyo